

**200 TONNA LAVLAGINI UYUM HOLIDA SAQLASH VA IQTISODIY  
SAMARADORLIKKA ERISHISH**

**Durdona Ochilova**

Jizzax politexnika instituti 4 bosqich talabasi

**Shaxlo Hoshimova**

Jizzax politexnika instituti assistenti

**Annotatsiya** Ushbu maqolada mualliflar tomonidan lavlagi mahsuloti haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birgalikda uyum holatida mahsulot saqlashning afzalliklari haqida hikoya qilingan. Iqtisodiy jihatdan yuqori qiyomat natijalarining kelib chiqishi soha mutahassislari uchun albatda o'z beznisini rivojlantirishida qo'l keladi.

**Kalit so'zlar:** lavlagi tuzilishi, mahsulotni yig'ishtirish, tovar holatiga keltirish, tabiiy kamayishga ta'sir e'tuvchi omillar, iqtisodiy samaradorlik.

**Аннотация** В данной статье авторы представляют информацию о свекловичном продукте. При этом было рассказано о преимуществах хранения продуктов в штабельном состоянии. Получение результатов, имеющих высокую экономическую ценность, безусловно, полезно для специалистов в этой области для развития их навыков.

**Ключевые слова:** структура свеклы, сбор продукции, коммерциализация, факторы, влияющие на естественную убыль, экономическая эффективность.

**Abstract** In this article, the authors provide information about the beet product. At the same time, the advantages of storing products in a stacked state were discussed. Obtaining results that have high economic value is certainly useful for specialists in this field to develop their skills.

**Key words:** beet structure, product collection, commercialization, factors influencing natural loss, economic efficiency.

Respublikamiz hukumati aholi turmush faravonligini oshirish uchun xalq xo'jaligining barcha sohalarida, ayniqsa qishloq xo'jaligida katta islohotlar olib bormoqda. O'zbekiston aholisining vitaminlarga bo'lgan talabi asosan meva va sabzavotlar bilan qondiriladi. Oziq-ovqat uchun ishlataladigan meva va sabzavotlar yer sharining barcha mamlakatlarida yetishtiriladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini iste'mol qilish boshlangandan buyon uni saqlash va qayta ishlash bilan shug'ullanib kelingan. Yetishtirilgan mahsulotni nes-nobud qilmasdan hamda uning sifatini pasaytirmsadan saqlash, undan

unumli foydalanish qadimdan inson ehtiyojlaridan biri bo'lgan. Ko'chmanchi xalqlar ham yig'ilgan meva va urug'larni saqlash uchun maxsus yerto'lalar qurishgan. Ayniqsa, xalqlar o'troq bo'lib, yashay boshlagan paytda otiqcha mahsulotlarni saqlash to'g'risida o'ylay boshlashgan. Shu bilan qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashning O'rta Osiyoda qo'llaniladigan eng qadimgi usullaridan tuzlash, achitish, sirkalash, ko'mib yoki osib saqlash, qoqi qilish, quritish kabilar keng qo'llanilgan. Hozirgi vaqtida fan-texnikaning jadal rivojlanishi barcha qishloq xo'jalik mahsulotlinining kimyoviy tarkibini aniqlash imkonini berdi, ularni saqlash va qayta ishlash kompleksini yaratishga keng yo'l ochildi. Meva va sabzavotlar oziq-ovqat ratsionida muhim ahamiyatga ega. Ular faqat oziq-ovqatga ishlatilmasdan, undan xalq xo'jaligining turli boshqa sohalarida ham ko'p foydalaniadi. *Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'rzasida hozirgi vaqtida O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan agrar siyosat fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligida tub islohatlarni amalga oshirish, bu jarayonda jamoat hamda mulkchilikning turli shakllaridan foydalanish asosida aholini oziq-ovqat mahsulotlariga, sanoatni xom ashyoga bo'lgan talabini qondirishga qaratildi.* Agrar sohadagi iqtisodiy isloxatlarni chuqurlashtirish davlat dasturidagi ustuvor vazifalar tabiiy resurslardan unumli foydalaniib, xalq farovonligini oshirish, respublikaning mustaqilligini mustahkamlash, shu bilan birga xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini rivojlantirishning muhimligidan kelib chiqadi[1].

Lavlagi. (*Dancus carola L.*), soyabon guldoshlar oilasiga kiradi. Bir yillik yovvoyi lavlagidan kelib chiqqan. U yovvoyi lavlagi bilan oson chatishadi. Lavlagi birinchi yili uzun bandli, patsimon taralgan barglar to'pbarg va etli ildizmeva hosil qiladi. Ildizmeva o'zak (yog'ochlik qismi) va tiniq rangli po'stdan iborat. O'zak bilan po'stning orasida kambiy qatlami joylashgan bo'lib, hujayralarning bo'linishi tufayli ildizmeva o'sadi. Ildizmevaning o'zagi bir muncha dag'al, yog'ochsimon tarkibida shakar kam va ta'mining sifati yaxshi emasligi bilan po'stidan farq qiladi. Shuning uchun o'zagi kichkina bo'lgan lavlagi navlari eng yaxshi hisoblanadi. Ikkinchi yili lavlagi kuchli taralgan bir yoki bir nechta shoxlari bo'lgan urug'poya hosil qiladi. Asosiy poya va xamma yon shoxlarining uchi mayda soyabonchalardan iborat murakkab soyabon to'pgul bilan tugaydi. Lavlagi gullari ikki jinsli (kamdan-kam bir jinsli), mayda, gultojibargi oq yoki pushti rangli, beshtalik turdadir. Gullari chetdan changlanadi, chunki changchi va urug'chi jinsiy organlari bir vaqtida yetilmaydi: changlar tumshuqcha ustunchasidan bir kun ilgari yetiladi. Dastlab bevosita asosiy poyadan chiqqan soyabondagi, so'ngra I, II va ulardan keyingi tartib shoxlar soyabonidagi, gullar, soyabonchalarda esa

avval tashqi gullar ochiladi. Urug'li lavlagi o'tkazilgandan keyin 45-50 kunda gullay boshlaydi, urug'i 120-125 kunda yetiladi. Ayrim to'pgullarning gullahsi 12-15 kun davom etadi. quruq issiq xavo gullahni tezlashtiradi, aksincha, sovuq hamda nam xavo susaytiradi. Lavlagining guli xasharotlar (asalarilar, pashshalar), kam xollarda shamol orqali changlanadi. Gullah tulallash deb qolganda to'pguldagi chetki soyabonchalar soyabon ichiga bukiladi, natijada soyabon "qush uyasi" shakliga kiradi. Mevasi-don, u ko'ngdalang qovurg'ali va tikanli bo'lib, ikkita alohida mevaga ajraldadi. Urug'i (mevachasi) tarkibidagi efir moyining ko'pliligidan o'ziga xos xidga ega va u juda sekin bo'rtib, unib chiqadi. Lavlagi urug'inining unuvchanligi, odatda 70-80% bo'lib, 3-4 yilgacha saqlanadi. Urug'inining absalyut og'irligi 1.1-1.5g. Lavlagi kimyoviy tarkibiy quruq modda 13.3, azotli moddalar 1.18, yog' 0.29, shakar 2.64, azotsiz moddalar 6.42, kletchatka 1.67, kul 1.03 foizni, vitamin S 5-7mg, % ni tashkil etadi[2].

O'zbekistonda lavlagi kech kuzda hosili yaxshi yetilgandan so'ng yig'ishtiriladi. Bunda kuzgi sovuq tushguncha yig'ishtirilib olinishi muhimdir. Kavlab olingan lavlagilar silkitib tuproqdan tozalangan holda barglari kesiladi. Yirikligi va sifatiga qarab saralanadi. Shikastlanmagan, barglari to'g'ri kesilgan, sog'lom lavlagilar qop, konteyner yoki qutilarga solib sabzavot omborlarga, tayyorlash shaxobchalarini va doimiy omborlarda saqlanadi. Bahorda ekilgan lavlagilarni realizatsiya qilish uchun tovar mahsulot olish mo'ljallangan bo'lsa, maysalar ko'ringandan 50-60 kun o'tgach, ya'ni lavlagi ildizmevasining diametri 1,5-2 sm ga yetgandan boshlab hosilni yig'ib-terib olishga kirishiladi. Kavlab olingan o'simlik barglari kesilmasdan bog'-bog' qilib, shu kunning o'zidayoq yoki ikkinchi kuni realizatsiya qilinadi.

Ildizmevalarni yig'ib-terib olishda elevator turidagi lavlagi va kartoshka kavlagichlardan foydalaniladi. Otga qo'shib ishlataladigan qurollardan kovlaydigan panjalar va otvalli ilib qo'yilgan pluglar qo'llaniladi. Qazib olingan ildizmevalarning bargi o'zak doirasi to'g'risidan shu kuniyoq pichoq bilan kesib tashlanadi, chunki bargi bilan turib olsa ildizmevaning suvi qochadi, so'liydi va keyinchalik unchalik yaxshi saqlanmaydi. Barglaridan tozalanadi, keyin ularni yirik maydali o'lchamiga qarab sarflanadi va ayni qishgi saqlashga yaroqsiz, ya'ni yetilmagan, yorilgan, shikastlangan ildizmevalar ajralib olinadi. Hosilni yig'ish, saralash va tashish vaqtida lavlagilarni urintirmaslikka, shikastlantirmaslikka (kesmaslik, po'stini shilmaslik va boshqa) harakat qilish kerak, chunki zararlangan lavlagilar yaxshi saqlanmaydi. Lavlagining hosildorligi ekinning nava, parvarishlash agrotexnikasiga, ayniqsa, ekish muddatiga qarab keskindarajada o'zgaradi.

Masalan, ertachi lavlagining gektaridan 120-130 s, kechkisidan 130-150 s atrofida hosil olish mumkin[3].




Dastlab sovuqqa chidamsiz, ildizmevasi tuproqqa chuqur kirmaydigan ekinlarning hosili yig'ib olinadi. Odatda, oldin lavlagi, keyin sholg'om, turp, sabzi, petrushka va selderey hosilini yig'ishtiriladi. Pasternak nihoyatda sovuqqa chidamli bo'lganidan uni kuzdagina emas, qishda kun iligan paytlarda, hatto bahorda ham yig'ib olish mumkin. Qazib olingan ildizmevaning bargi o'zak doirasi to'g'risidan shu kuniyoq pichoq bilan kesib tashlanadi, chunki bargi bilan turib qolsa, ildizmevaning suvi qochadi, so'liydi va keyinchalik unchalik yaxshi saqlanmaydi. Barglaridan tozalanadi, keyin ularni yirik maydaligiga qarab saralanadi va ayni vaqtida qishda saqlashga yaroqsiz, ya'ni yetilmagan, yorilgan, shikastlangan ildizmevalar ajratib olinadi. Hosilni yig'ish, saralash va tashish vaqtida ildizmevalarni urintirmaslikka, shikastlantirmaslikka (kesmaslik, po'stini shilmaslik va hokazoga) harakat qilish kerak, chunki zararlangan ildizmevalar yaxshi saqlanmaydi. Ildizmevalarning hosildorligi ekinning nava, parvarishlar agrotexnikasiga, ayniqsa, ekish muddatiga qarab keskin darajada o'zgaradi. Masalan, ertagi sabzining gektaridan 120-130 s, kechkisidan 130-150 s, lavlagining ertagisidan 130-140, kechkisidan 150-180 s atrofida hosil olinmoqda. Ilg'or sabzavotchilik xo'jaliklarida ildizmevalardan ancha yuqori gektaridan 250-300 s va undan ortiq hosil yetishtirilmoqda. Osh lavlagi ildizmevalar va mayda xujayrali tuzilishga ega bo'lib bu ularning uzoq muddatda yaxshi saqlanishini ta'minlaydi. Uning ilidzmevalari kuz oxirida yig'iladi va yilning eng sovuq payti qishda saqlanadi. Bu esa osh lavlagini sun'iy sovutishni qo'llash uchun sarflanadigan harajat-larsiz oddiy usullarda saqlash imkonini beradi. Qishda saqlashda omborxonalar sovitilishini talab etmaydi, aksincha salbiy haroratdan himoya qilish lozim bo'ladi. Shuning uchun onaliklar oddiy omborxonalarda saqlanadi. Ma'lumki, ildizmevalarning polikam-biyli mayda xujayrali tuzilishi tufayli ular yaxshi saqlanadi. O'zbekiston sharoitida osh lavlagi onalik ildizmevalarini eng yaxshi saqlash usulini aniqlashda M. Adilov [2008] qish mavsumida ularning o'ra-

larda yer ustki sovtilmaydigan omborxonalarda shuningdek, chuqurligi 1 m, eni tepasi bo'yicha 1 m va osti bo'yicha 80 sm, usti 20 sm qalinlikda poxol bilan yopilgan, uning ustidan 40-45 sm da tuproq sepilgan o'ralarda saqlashda mahsulotning kamayishi miqdorini qiyosiy baholagan. Barcha usullarda ildizmevalar uyum holida saqlangan, saqlash muddati 1 noyabrdan 1 martgacha, ya'ni 120 kunni tashkil etgan.

Sun'iy sovitiladigan omborxonalarda saqlashning boshidan oxirigacha 3-5°С li harorat ushlab turilgan. Yer ustki sovtilmaydigan omborxonalar-da harorat noyabr oyda 8-19°С ni, dekabr va yanvarda -6-8°С ni, fevralda -7-10°С ni tashkil etdi. Havoning sovuq qishqi haroratiga qarama o'ralarda saqlangan osh lavlagi ildizmevalari biror yilda ham muzlamadi va mart oyining boshigacha yaxshi saqlanadi[4].

#### **Osh lavlagi ildizmevalarinng har xil saqlash usullarida saqlanuvchanligi**

Saqlash usuli	Ildizmevalarni ng saqlanuvchan ligi,%	Umumiylamayish, %	Shu jumladan		
			Vaznning tabiiy kamayishi	chirish	ko'karish
O'ralarda	89,4	10,6	2,2	5,7	2,7
Yer ustki sovtilmaydigan omborxonalar	79,4	20,6	7,2	4,3	9,1
Sun'iy sovitiladigan omborxonalarda	88,2	11,8	3,8	3,2	4,8



**1-rasm. Uyumning tuzilishi**

1 – tuproq bilan so'nggi yopilish; 2 – birinchi tuproq bilan yopilish; 3 – uyum haroratini o'chagich; 4 – saqlanayotgan mahsulot; 5 – pohol; 6 – suyuqlik quyiladigan ariq; 7 – suvni chiqarib yuboruvchi ariqcha

**Sotuvdan tushgan tushum**

Mahsulot nomi	Mahsulot hajmi	Kunlik	Bir-birlilikning narxi	Oylik quvvat	Oylik daromad	Yillik daromad	Oylik quvvat	Yillik quvvat
200 TONNA LAVLAGIN I UYUM HOLIDA SAQLASH	litr	556	5 000	3 205 128	83 333 333	1 000 000 000	16 667	200 000
<b>Итог:</b>		<b>556</b>		<b>3 205 128,21</b>	<b>83 333,33</b>	<b>1 000 000 000,00</b>	<b>16 666,67</b>	<b>200 000,00</b>

O'simliklarni genetik himoya usuli ikki organizm: parazit bilan o'simlik xo'jayinning o'zaro ta'siriga asoslangan. O'simlikning kasallik va zararkunandalarga nisbatan immuniteti (chidamligi) muhim ahamiyatga ega. O'simliklarni mikrobiologik himoya usulida kasallik hamda zararkunandalarga qarshi kurashish uchun mikroorganizmlardan foydalilaniladi. O'simliklarni uyg'unlashgan - integral himoya usulida zararkunanda hasharotlar hamda kanalarga qarshi kurashish uchun kimyoviy va biologik kurash usullari birgalikda olib boriladi. Bunda odam tomonidan buzilgan agrobitsenozdagi turlar nisbatan tiklanadi, bu esa biosferani muhofaza qilishning muhim omillaridan biridir. O'zbekiston o'simliklarni himoya qilish institutida, oliy o'quv yurtlari, tajriba st-yalarida shu sohaga oid ilmiy ishlar olib boriladi. Lavlagi mahsulotini uyum holatida saqlash atrof-muhitga hech qanday zarar yetkazmaydi[5].

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki men 200 tonna lavlagini uyum holatida saqlash bo'yicha kurs ishimni yozdim. Olib brogan tadqiqotlarim hamda tajribalarim albatta o'zining samarasini beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- Sh.M.Mirziyoyev "Taqqidiy tahlil, qatiy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan

majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 17 yanvar.- Toshkent: - " O'zbekiston", 2017. -104 b.

2. Artyugina Z.D., Brejnev D.D., Zaostrovskaya Ye.P., Tkachenko N.N. Ovoshevodstvo v zonax konservnoy promishlennosti. -M.: Kolos, 1979
3. Balashev N.N., Zeman G.O. Ovoshevodstvo. -T.: O'qituvchi, 1981.
4. Biyelka R. Proizvodstvo tovarnix ovoshey. - M.: Kolos, 1969.
5. Bo'riyev X., Zuyev V., Qodirxo'jayev O., Muxamedov M. Ochiq joyda sabzavot ekinlari yetishtirishning progressiv texnologiyasi. - T.: UzME, 2002.